

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

Buxoro Davlat Universiteti

**“Boshlang‘ich ta’lim
metodikasi” kafedrası**

APPLIKATSIYA ISHLARINI BAJARISH METODIKASI

**(Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi
talabalari uchun metodik qo`llanma)**



Buxoro-2022

Metodik qoʻllanma Buxoro davlat universiteti Ilmiy-metodik kengashning 2022 yil 5 fevral
dagi yigʻilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan

Ushbu metodik qoʻllanmada texnologiya dars mashgʻulotlarida applikasiya bajarish orqali oʻquvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, u umumtaʼlim maktablari texnologiya fani va oliy taʼlim muassasalarining talabalari foydalanishlari uchun moʻljallangan. Unda quyi sinf oʻquvchilarini applikasiya bajarish orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish haqidagi maʼlumotlar batafsil bayon etilgan.

Tuzuvchi: Xaydarova M.D – BuxDU Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim fakulteti
“Boshlangʻich taʼlim metodikasi” kafedrası oʻqituvchisi

Taqrizchilar:

Z.D.Hasanova ,

Buxoro texnologiya –muhandislik instituti
dotsenti , falsafa fanlari doktori.

.

:

M.M.Tilavova, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

© Xaydarova M.D. Applikasiya ishlarini bajarish metodikasi. BuxDU, 2022.

MUNDARIJA

Kirish	4
1. Applikatsiya va uning rivojlanish tarixi, ta'lim tizimida tutgan o'rni.....	6.
2.Applikatsiya turlari.....	7
3. O'quvchilarni applikatsiya bajarishga o'rgatish.....	17
4.O'quvchilarni applikatsiya bajarishga o'rgatish va o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini ruvojlantirish.....	22
5. Applikatsiya bajarish bo'yicha topshiriqlar variantlari va didaktik vositalar tayyorlash	28
6. Applikatsiyadan master klasslar.....	30
7.Foydalanilgan adabiyotlar	31

KIRISH

Mamlakatimizda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning asosiy maqsadlaridan biri ijtimoiy-siyosiy hayotda faol, mustaqil faoliyat ko'rsatadigan, erkin fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdir. Shu maqsadda shaxsni har tomonlama ijtimoiy shakllanishini ta'minlaydigan zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi. Uzluksiz ta'limning mohiyati aniq maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsni shakllantirish borasida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashdan iborat. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyatni yangilashda asosiy masala hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning bilim darajasiga bog'liq.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida tarbiyalash uchun imkon beruvchi, mukammal ta'lim tizimini yaratish, uning samaradorligini oshirish kabi masalalar tashkil etadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g'oyalariga muvofiq jamiyatda kadrlar tayyorlash borasida o'ziga xos milliy model yaratildi. Milliy model o'z mohiyati bilan barkamol shaxs va malakali kadr tayyorlashga xizmat qiladi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturimizda belgilangan kabi vazifalar to'liq amalga oshgan taqdirda ular, birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizda mavjud muhit butunlay o'zgaradi.

Hozirgi kunda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, kasbga o'rgatish, ularning aqliy va ma'naviy kamol toptirishdan iboratdir. “Ta'lim to'g'risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqqan holda ta'limning mazmuni va vositalarini yangidan ishlab chiqishni hayotning o'zi talab qilmoqda. Bu omil ta'lim jarayoni tarkibiy qismlarini yangicha tartibda namoyon bo'lishini talab etadi. Ana shu tashkiliy pedagogik jarayonda ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta'lim metodlarining paydo bo'lishi, ta'lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta'limni tashkil etishda o'qituvchi mahoratining noan'anaviy shakllari keng ko'lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

Ushbu o'zgarishlarning ma'lum qismi mavjud didaktik yondashuvlarning tarkibi sifatida chiqqan bo'lsa, yana bir qismi dunyodagi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo'ladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi alohida e'tibor qaratadigan yo'nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur.

Texnologiya ta'limi darslarida, ayniqsa quyi sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari juda kam. Shu o'rinda quyi sinf o'quvchilarini applikatsiya bajarish orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning imkoniyatlari juda katta. Buni keyingi yillarda chet ellarda nashr qilingan turli xil qo'llanmalar misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu qo'llanmalarni o'rganish orqali applikatsiya turlari ham ko'pligini, ularni bajarish o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishini ko'ramiz. Lekin bu yangiliklar mamlakatimiz ta'lim tizimidagi darslik va o'quv qo'llanmalarda haligacha o'z aksini topmagan.

Tasviriylar faoliyatning har bir turi yoshlarga estetik ta'siridan tashqari o'ziga xos ta'sir qilish xususiyatiga ham ega. Applikatsiya maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. U ko'plagan shaxsiy sifatning shakllanishiga, ruhiy va estetik imkoniyatlarining rivojlanishiga ko'maklashadi.

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda bolalarning aqliy, estetik rivojlanishi uchun maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlab shug'ullanish zarurligi isbotlab berilgan. Tasviriylar faoliyat bilan, jumladan applikasiylar bajarish bilan ham umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'rinli foydalanish imkoniyatlari juda ko'p. Buni boshlang'ich sinflarning darsliklarini tahlil qilish orqali ko'rish mumkin.

Applikasiylardan texnologiya fani o'qituvchilari to'garak faoliyatlarida foydalanishlari, ayniqsa, noan'anaviy applikatsiya turlaridan foydalanishi o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib, estetik didlarini yuqori darajaga ko'taradi.

1.APPLIKATSIYA VA UNING RIVOJLANISH TARIXI, TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O`RNI

Applikatsiya tasvir hosil qilish texnikalaridan biri bo'lib, (lot. *applicatio*- biror narsaga joylamoq, yopishtirmoq) – rang-barang qog'oz yoki mato parchalarini yoki boshqa materiallarni fon (tag) sifatida qabul qilingan biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul, tasvir hosil qilish usuli; shu usulda hosil qilingan naqsh, gul, tasvir.

Tasvirlash texnikasining bir ko'rinishi sifatida applikatsiya juda qadim zamonlardan qo'llanilib kelingan. U qadim davrlardan kiyimlar, poyafzal, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or jihozlarini bezashda foydalanilgan. Applikatsiyalarning mavzulari sifatida dastlabki davrlarda qushlar, hayvonlar, insonlar, chiroyli o'simliklar va gullar tanlangan. Applikatsiya bajarishda keyinchalik iplar, matolar, metall plastinkalar, biser va marjonlardan foydalanib boshlashgan.

Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Bu ishda ular teri mo'yna, namatdan foydalanishgan.

Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida po'stloqdan foydalanishgan, bo'yalgan po'stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan, Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikatsiyada teri, mo'yna ishlatishgan.

Komi, qozoq, qalmiq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Gazlamadan applikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyim-bosh, uy-ro'zg'or predmetlari bezatilgan.

Faqat XVI asrga kelib rivojlangan qog'ozdan applikatsiya qilishni applikatsiyaning «yosh» turi deyish mumkin. Qog'ozdan naqsh qirqish bilan o'tmishning mashhur san'atkorlari ham shug'ullanishgan. Masalan, rassom Piter

Paul Rubens, daniyalik haykaltarosh Bertel Garvildson ishlari shular jumlasidandir. Mashhur ertakchi Gans Xristian Andersen o'z ertaklari motivlari asosida qog'ozdan applikatsiyalar qirqqan. Rassom F. P. Tolstoyni XIX asrning birinchi yarmidagi siluet yaratuvchilarning eng mohir ustasi deyish mumkin. Uning 50 ta siluet ishi Ermitajda saqlanmoqda. Ko'plagan grafik-rassomlar hozirgi kunda plakat tayyorlashda, kitoblarni bezash ishlarida siluetdan badiiy ifodalashning mustaqil vositasi schifatida foydalanadilar.

XIX asrda siluet san'ati G. Narbut, E. Kruglikovva ko'pgina boshqa rassomlarning ijodida ham o'z aksini topdi. Applikatsiya san'ati bilan faqat professional san'atkorlarga shug'ullanib qolmay, balki xalq orasidan chiqqan mohir ustalar ham bu ish bilan shug'ullangan edilar. Ukraina va Belorussiyada qog'ozdan naqshli pardafiranklar qirqishgan. Qog'ozdan kartinalar yaratib, oynalarga yopishtirilgan. Rassom E. E. Lebedeva ham o'z talantini qog'ozdan applikatsiyalar qirqishga bag'ishlagan. Polshada bezak sifatida qirqilgan naqshlar yangi oqlangan devor va shiplarga yopishtirilgan, bu ijod xalqda — *vitsinanki* deb ataladi.

Rossiya Federatsiyasi olimlaridan A.V.Zaporojets, V.V.Davidov, N.N.Poddyakovlarning ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalar material bilan bevosita ishlash, jumladan applikatsiya bajarish jarayonida materiallarning sezilarli xususiyatlarini aniqlash, alohida buyumlar va hodisalar orasidagi bog'liqliklari farqlash va ularni obrazli shaklda aks ettirishni uddalashlari ko'rsatilgan. Bu jarayon amaliy faoliyatning turli ko'rinishlarida yaqqol namoyon bo'ladi: analiz, sintez, solishtirish va taqqoslashning umumlashgan usullari rivojlanadi; mustaqil ravishda ijodiy masalalarning yechimlarini topish ko'nikmalari shakllanadi; o'z faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalari rivojlanadi.

Applikatsiyaning rivojlanishi va tarixi bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida hozirgacha bu yo'nalishda o'zbek tilida yaratilgan, shu sohani ilmiy tadqiq qilingan adabiyotlarning juda kamligi aniqlandi. Shuning uchun bu sohadagi rus tilidagi adabiyotlardan ko'proq foydalandik. Shuningdek Xorazm viloyatida xalq

amaliy san'atining applikatsiyaga tegishli bo'lgan hozirgi kunlarga etib kelgan yo'nalishlarini imkoniyatimiz darajasida yoritishga harakat qildik.

Paziriq qo'rg'onlarida o'tkazilgan arxeologik qazishmalarda topilgan eng qadimgi applikatsiyalarga taalluqli namunalar o'zining yuqori badiiy mahoratda bajariganligi bilan ajralib turadi. Qo'rg'onlardagi qazish ishlarida qabila etakchilarining qabrlaridan ko'plagan yog'och va har xil buyumlar topilgan. Abadiy muzliklar sababli hozirgi kunlarga saqlanib qolgan otlarning qoldiqlarida faqatgina metall buyumlar emas, yog'och, teri, jun kabi materiallardan tayyorlangan buyumlar ham topilgan.

Otlarning egarlari ko'k namat bilan qoplanib, unga ikkita afsonaviy maxluq yangi manzarasi tushirilgan teridan applikasiya bajarilgan. Teridan tayyorlangan suv meshlariga ham bug'u boshi tasviri tushirilgan applikatsiyalar tikilgan.

Choy, tuz solinadigan xaltachalarni matodan qilingan applikatsiyalar bilan bezashgan. Boshqirdistonning janubiy hududlarida qadimda ko'chmanchi xalqlarning kiyimlari naqshli applikatsiyalar bilan bezatilgan. Ayollarning oyoq kiyimlarini bezatishda applikatsiyalardan juda keng foydalanilgan. Bunda yuraksimon va shoxsimon naqshlar ko'p ishlatilgan. Applikatsiyalar faqatgina Osiyda keng tarqalib qolmasdan Evropada: Italiya, Ispaniya, Germaniya, Frantsiyada ham ommalashgan bo'lgan. Sitsiliya qiroli Rojer II Vizantiyalik asirlar orasida tikuvchilar bilan birga to'quvchilarni ham olib kelgan. Sitsiyaliyada tikilgan ko'ylaklar shu davrda o'zidagi to'qilgan naqshlari bilan mashhur bo'lgan.



XX asr boshlarida tayyorlangan xaltacha

O`yma naqshli Sitsiliya ko`ylaklari juda katta obro`ga ega bo`lgan. Vaqt o`tishi bilan bunday ko`ylak tayyorlash butun Italiyada ommalashgan. Duxoba va atlasdan o`yib tayyorlangan applikatsiyali ayollar ko`ylaklari alohida qadrlangan.

Applikatsiya ishlarining eng gullagan davrini XVI asrda Italiya va Ispaniyadagi cherkov kiyimlarida ko`rish mumkin.

Keyinchalik matodan tayyorlanadigan applikatsiyalarning o`rniga qog`oz applikatsiyalar kirib kela boshladi. Bu qog`oz tayyorlashning boshlanishi bilan bog`liq bo`ldi. Qog`ozdan qir qilgan qora siluetlar tezda ommalashib ketdi. Tasviriy san`at turi sifatida siluet ancha oldin, eramizdan avvalgi VI asrda paydo bo`lgan deb hisoblanadi.

Gretsiyada o`z uyining devoriga sevgilisi soyasi tasvirini tushirib qo`ygan Dibutari ismli qiz to`g`risida afsona bo`lgan. Shu davrlardan boshlab grek vazalarini yassi profil figuralar bilan bezatish rasm bo`lgan.

Frantsiyada siluet san`ati XVI asrda qayta tiklanib, shu vaqtdan boshlab siluet atamasi ommalashgan. XVII asr boshlarida Frantsiyada qog`oz siluetlar ishlash urf bo`lib ketgan va qisqa vaqt ichida Evropaning hamma davlatlariga tarqalgan. Turarjoy binolarining devorlarini unchalik katta bo`lmagan siluet portretlar va turmush voqealari tasvirlangan manzaralar bilan bezash ommalashgan. Siluet atamasi XVII asrdagi frantsuz mansabdor shaxsi Eten Siluetning familiyasidan olingan. U davr modasiga amal qilib, qog`ozdan turli shakllar qir qilishga qiziqqan. Bu haqda turli voqealar xalq orasida tarqalib ketgan, shunga qiziqib bir rassom Eten Siluetning soyasi ko`rinishidagi karikaturani ishlaydi. Tasvirning bu ko`rinishi shundan keyin siluet nomi bilan atalib ketgan.

Siluet san`ati bilan ko`plagan taniqli rassomlar: Albrext Dyurer, Peter Paul Rubenslar ham qiziqqanlar. Mashhur ertakchi Gans Xristian Andersen ham san`atning ushbu yo`nalishiga qiziqqan.

O`zbek applikatsiya san`atiga to`xtalganimizda u xalq amaliy san`atining juda ko`p sohalari bilan uyg`unlashib ketganligini ta`kidlash lozim. Applikatsiyaning alohida o`ziga xos san`at shakllari ayniqsa Buxoro zardo`zlik san`ati, so`zanachilik

ko`rinishlarida o`ziga xos, boshqa xalqlar applikatsiya san'atidan farqli ravishda rivojlangan.

Xorazm applikatsiyasiga “qurama” san'atini alohida ajratib ko`rsatishimiz kerak bo`ladi. Qurama O`zbekistonning boshqa hududlarida Xorazmdagi singari rivojlanmagan. Xorazmda har xil matolar parchalari yoki qoldiqlaridan turli bezaklar, uy-ro`zg`or anjomlari tayyorlash qadimdan ommalashgan bo`lgan. Qurama bajarish bilan asosan ayollar shug`ullanib, yostiq jildlari, ko`rpa, ko`rpacha kabi anjomlar tayorlaganlar. Qurama shuningdek uylarni bezatishda ham ishlatilgan.

Applikatsiya o`zbek xalq amaliy san'atida amaliy san'atning boshqa turlari bilan uyg`unlashib ketganligi sababli u ko`pincha ustalar tomonidan tayyorlangan har xil mahsulotlarga bezaklar berishda, kiyim-kechaklar va kundalik turmush anjomlarini bezatishda juda keng qo`llanilgan. Ayniqsa o`zbek so`zanalari o`zining ramziy ma`nolari, undagi tasvirlarning yorqin ranglari bilan nafaqat qadimgi O`zbekiston hududida, balki savdo-sotiq rivojlangan boshqa davlatlarda ham juda yuqori qadrlangan. Qadimgi o`zbek so`zanalarining namunalari bugungi kunda Germaniya, Frantsiya, Yaponiya kabi dunyoning ko`plagan mamlakatlaridagi muzeylarda namoyish qilinmoqda.

Xalq amaliy san'atining eng boshlang`ich elementlarini o`zida aks ettirgan applikatsiya bajarishni kichik yoshdagi bolalarga o`rgatish, shu orqali ularda ijodkorlik ko`nikmalarini uyg`otib, rivojlantirish kasb-hunar kollejlarida tayyorlanayotgan tasviriy va amaliy san'at o`qituvchilari uchun muhim mutaxassislik yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

2. APPLIKATSIYA TURLARI

Applikatsiya — badiiy asarlarni yaratishning eng, sodda va oson usulidir, bunda tasvirning realistik asosi saqlanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko`rgazmali qurollar, turli o`yinlar uchun qo`llanmalar, o`yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko`rgazmalar va

kostyumlarni tayyorlash emas, balki kartina, pano, naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo'llash imkonini beradi.

Maktabda boshlang'ich sinf yoshdagi bolalarga ta'lim berishda applikatsiya mashg'ulotlarining, jumladan applikatsiya tayorlashning noan'anaviy texnikalaridan foydalanishning ijobiy ahamiyati ilmiy isbotlangan.

Pedagoglarning tajribalarini umumlashtirish natijasida applikatsiya bajarishning quyidagi ahamiyatlari aniqlangan:

- Borliqni estetik idrok qilishning rivojlanishi, badiiy didning shakllanishi;
- Badiiy grafik ko'nikma va malakalarning rivojlanishi;
- Fantaziya, ijodiy tafakkur va tasavvur, fazoviy idrokning rivojlanishi;
- Qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning nozik harakatqilishlarining rivojlanishi;
- Badiiy ijodni tashkil qilishning ayrim ko'nikmalarini egallash;
- Mahalliy va dunyo badiiy madaniyatlari haqidagi ma'lumotlarni egallash;
- Tamosha qilish madaniyatini tarbiyalash;
- Badiiy-tasviriy faoliyat kasbiga moyillikning ochilish imkoniyati.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktagacha ta'lim muassasalarida applikatsiyaga o'rgatish bugungi kunda alohida mashg'ulot shaklida bo'lmasa ham uni sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ko'rinishlari shaklida o'rgatish imkoniyatlari mavjud. Lekin hozirgacha ta'lim muassasalarida bolalar va o'quvchilarni noan'anaviy texnikada applikatsiya bajarishga o'rgatish orqali ularning badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni uchratmadik.

Hozirgi kunda applikatsiya xalq san'atida juda keng tarqalgandir. «Applikatsiya» tushunchasi xususiyatlari va faktura materiallariga ko'ra xilma-xil bajarilish texnikasining o'xshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini o'z ichiga oladi. Har bir material applikatsiyasi bajarish texnikasiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qog'oz, limon, daraxtlar po'stloqlari fonga turli elimlar bilan yopishtiriladi.

Applikatsiyalar hozirgi davrda har xil qog'ozlar, mato, turli xil tabiiy materiallar

(somon, daraxt po'stloqlari, qum, quritilgan o'simliklar, barglar, har xil urug'lar) dan hosil qilinishi mumkin.

Dekorativ applikatsiya — u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlar (barg, shox, qo'ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar) dan tarkib topuvchi predmetli, hodisa harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi sujetdan iborat bo'lishi mumkin .



Geometrik shaklli applikatsiyalar. Bajarilish texnikasiga ko'ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. I—III sinflar o'quvchilari geometrik shaklli applikatsiyalarni bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri burchak, uch, aylana qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydilar.
2. Badiiy didni o'stiradilar, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.
3. Ayrim predmetlarni detalma-detal tahlil qilib, geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar. Masalan, archa bir-biriga kiygazilgan uchburchakka o'xshaydi yoki yuk mashinasi turli o'lchamdagi to'g'ri burchaklardan, g'ildiragi aylanadan tashkil topgan. Ko'pgina predmetlarni ana shunday razbor qilishva ularni geometrik shakllar yordamida qog'ozda tasvirlash mumkin.
4. Bolalarning «ko'p», «kam», «uzunasiga», «ko'ndalangiga», «qism» va «qatlam», «ikki qismga qirqish», «to'rt qismga», «teng qismlarga» kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

5. Bolalar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi. Geometrik shaklli apilikatsiyalarni ham dekorativ — ornament, predmet, sujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin.

O'quvchilar bajaradigan birinchi ish — bu qog'oz bo'lagi, kvadrat, doira, to'g'ri burchak hamda, ovaldanturli geometrik shakllarni yasay olishdir. Bu ishnibajarish uchun o'quvchilar rangli varaqdan bo'lakni qirqib oladilar. Buning uchun ular varaqning har ikkala tomoniga bir xil masofada nuqtalar qo'yadilar va ularni chizg'ich bilan birlashtirib, qog'oz polosasinu belgilangan chiziq bo'yicha qirqib oladilar. Qirqib olingan qog'oz chetlarini bukish bilan kvadratlar olinadi. Applikasiya yopishtiriladigan qog'oz ikkiga buklanadi va buklangan joyini silab iz tushiriladi. Qog'ozni ochib, detallar iz bo'ylab yopishtiriladi. Avval kvadrat yopishtiriladi, so'ngra keyingi kvadratdan taxlash yo'li bilan 4 ta kvadrat olinadi va ular ham yopishtiriladi, keyingi kvadratdan uchburchaklar qirqib yopishtiriladi. Navbatdagi darsda o'quvchilar geometrik shakllardan ornament yasashlari mumkin.

O'quvchilar har xil rangdagi 2 ta qog'ozdan 6 ta kvadrat qirqadilar. Ornament elimlanadigan qog'ozni tayyorlab, o'rtasiga chiziq tushirib kvadratlarni shu chiziq bo'ylab joylashtiradilar. Ish ijodiy bo'lishi mumkin. O'qituvchi doskada kvadratlardan yasalishi mumkin bo'lgan ornamentning bir necha variantlarini ko'rsatadi va o'z ornamentlarini topishni bolalarga havola qiladi. Kuni uzaytirilgan gruppalarda uchburchak yoki shunga yaqin shakllardan ornamentlar yasash mumkin.



Predmetli applikasiya. Bolalarning predmetlarni fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Bizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-

tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O'qituvchi istagan predmetni tanlashi mumkin. Unibolalar bilan birgalikda ko'rib, uning ayrim detallari qaysi geometrik shakllarga o'xshashligi, ularni qanday o'lchamlarda, qaysilarini kattaroq, qaysilarini kichikroq olish, qanday izchillikda joylashtirish kerakligi aniqlanadi. O'quvchilarni doira va ovalni qo'lda tekis qirqishga o'rgatish kerak. Buning uchun kvadrat shakldagi qog'ozni to'g'ri buklab, burchaklari qirgilsa doira tayyor bo'ladi. To'g'ri burchak shaklidagi qog'ozni to'rt buklab, burchaklari qirgilsa oval va uning qismlari hosil qilinadi. Endi bu geometrik shakllardan applikatsiyalar (shar, qo'ziqorin) yasash mumkin.



Bir rangdagi qog'ozdan simmetrik tuzilishdagi tasvirlarni qiyish uchun ma'lum geometrik shakldagi kvadrat qog'oz, to'g'ri burchak olinadi. Agarda predmet dumaloqroq (olma, pomidor, olcha va shu kabilar) bo'lsa — kvadrat, agarda cho'zinchoqroq (bodring, sabzi, daraxt va shu kabilar) bo'lsa — to'g'ri burchak olinadi. Qog'oz ikkiga buklanib, unga predmetning yarim silueti chiziladi, bunda uning markaziy⁵ bukilgan chiziq bo'yicha o'tadi va qirqib olinadi. Qirqib olingan siluet yoylaganda, predmetning to'liq chizilgan shaklini ko'ramiz. Bolalar qirqish ko'nikmasini egallab olganlaridan so'ng ko'pgina predmetlarning konturini chizishda asosiy xususiyatlari saqlab qolinishi muhimdir. Shuning uchun biror predmetning

konturini tushirishdan oldin, uni yaxshilab ko`rib chiqish, shaklini o`rganish,proportsiyasini aniqlash kerak.

**Ko`p rangli applikatsiyalarni** qirqish anchagina murakkab ish bo`lib tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyani bajarishdafonni tanlash muhimdir. Fon ifodalanadigan predmetlar rangidan ochroq bo`lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo`rtib turgandek, yorqin ko`rinadi. Hammasi o`ylangan kompozitsiyaga bog`liq. Fonda joylashadigan detallar rangi ham shunday tanlanadi, detallarningtabiiy joylashishi va ular o`lchamlarining uyg`unligiga e`tibor berish kerak.



Bu ishlarni bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar konturlarini oldindan belgilanmay qirqiladi; ayrim detallar esa belgilangan natura-eskizlar bo`yicha qirqiladi.

Sujetli applikatsiya: Sujetli applikatsiya kompozitsiyasiga ko`ra oddiy va murakkab bo`lishi mumkin. Murakkab sujetli applikatsiya — ertaklar, hikoyalar vashu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agardasujet oddiy bo`lsa, tasvirlarni oldindan belgilanmay qirqish mumkin.

Murakkab sujetli applikatsiya ham sujet tanlashdan boshlanadi. Agarda sujetni o`quvchining o`zi o`ylab topgan bo`lsa, bu rasm chizish malakasiga ega bo`lsa, unda avval sujetning rasmi, so`ngra rasmlar detallarichiziladi va qirqib olinadi. Ayrim detallar turli rangdagi qog`ozlardan qirqiladi. Agarda o`quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, u tanlangan rasmdan kalka qog`oz yordamida nusxa ko`chirishi mumkin. Bu rasm ayrim detallarga ajratiladi, har bir detalni (ma`lum rang-ga qo`yib) rangli qalam bilan atrofi chizib chiqiladi. Ularni qirqib olib, sujet yoki narsa detallari qog`ozda yig`iladi. Predmet yoki sujetning tabiiy ko`rinishiga putur etmasligi uchun ularning qaysi tartibda elimlanishi belgilanadi va ishga kirishiladi.

Kichraytirish va kattalashtirish usuli yordamida rasmlardan kattalashtirib yoki kichiklashtirib applikatsiyada foydalanish mumkin.



Mavzuli applikatsiya, Tematik applikatsiya ma`lum mazmunni aks ettirishi lozim u badiiy asar uchun illyustratsiya, applikatsiyaplatkat bo`lishi mumkin. Badiiy tematik applikatsiya ishi predmetlar formasini, asosiy proportsiyalarni, qismlarning o`zaro aloqasini, manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya vayorug`lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko`rsatish kabilarni ifodalashi kerak.

Mavzuli-manzarali applikatsiyalar bajarish uchun har xil predmetlarni mavzu yoki manzaraga mos tartibda qog`ozdan qirqib olib to`g`ri joylashtirish (“Bo`g`irsoq to`nkada dam olib o`tiribdi”, “Jo`ja donlamoqda”, “Akvariumdagi baliqlar”) ko`nikmalarini talab qiladi. Bunday hollarda bolalar oldiga quyidagicha vazifalar qo`yiladi:

- Predmetlarni qirqib olish, ularni oʻzaro taqqoslaganda kattaliklarining bir-biridan farqini aniqlash (daraxtlarning balandligi, qushlarning kichik tasvirlanishi, katta va kichik baliqchalar);
- Asosiy predmetlar va bosh qahramonlarni ajratib tasvirlash, ularni voqea joyi bilan bogʻlash (baliqlarning akvariumdagi suzib yurishi, gullarning oʻtloqda oʻsib turishi);
- Qahramonlarning xarakterli xususiyatlarini imo-ishoralari, gavda vaziyatlari, kiyimlari, ranglari orqali ochib berish (boʻgʻirsoqning ayiq bilan uchrashishida ularning figuralari bir-biriga qaratib yelimlanadi);
- Kompozitsiya tuzishda fonga predmetlar gorizontaal va vertikal qatorlar boʻyicha joylashtiriladi (shahar koʻchalari, bolalar xori qatnashchilari). Uzoqdagi predmetlarning tasviri kichik qilib olinadi.
- Yil fasllarini, ob-havoning oʻzgarishi kabilarda ranglardan toʻgʻri foydalanish.

Bu vazifalar bolalarning yoshlariga qarab har bir guruhda har xil amalga oshiriladi. Bilim, koʻnikma va malakalarining darajasiga qarab topshiriqlar murakkablashtirib boriladi va ijodkorlik elementlari orttiriladi.

Bolalarning yoshiga qarab ularning mavzuni yoritishlari ham har xil boʻladi. Masalan, “Kuz” mavzusini bolalar turlicha ochib beradilar. Katta yoshdagi bogʻcha bolalari “Kuzgi guldasta”, “Poliz mahsulotlari” kabi applikatsiyalarni tayyorlasalar, quyi sinf oʻquvchilari “Kuzgi natyurmort”, “Qushlar issiq oʻlkalarga qaytmoqdalar” kabi original mavzularni tanlashlari mumkin



Kuz ne'matlari (mevalar)

Badiiy applikatsiya — tematik ishlarni yaratish faqat mehnatni emas, balki badiiy tayyorgarlikni hamtalab qiladi. Mehnat ta'limi darslarida applikatsiya ishlarini bajarish texnikasi o'rganiladi.

Plakat applikatsiyasi tematikasining elementlarini o'quvchilar turli bayramlarga bag'ishlangan tabrik telegrammalari, yo'l belgilari va shu kabilar tarzidabajaradilar.Qadimgi zamon xalklari o'z turmush tarzini bezashdaapplikatsiyalardan keng foydalanganlar. Qog'ozlar applikatsiyalar bilan gilamlarni, tatarlar yumshoq charm etiklarini, shimol xalqlari charmdantikilgan kiyimlarni turli xil naqshlar bilan bezatganlar. Ruslar gazlamalarda applikatsiyalardan keng foydalanganlar. Rassomlar ham o'z ishlarida applikatsiyalardan foydalanganlar. Qadimgi o'zbek xalqi amaliy san'atida ham applikatsiyalar katta rol o'ynab kelmoqda. Xalq amaliy bezak san'atlari bo'lgan kashtachilikda applikatsiyalar keng foydalanilgan va foydalanib kelinmoqda.

Applikatsiyalar asosga turli rangdagi materiallarni elimlash yoki to'qish yo'li bilan hosil qilinadi. Asos sifatida qog'oz mato, charm va boshqalar ishlatilishi mumkin.

Maktab sharoitida mehnat ta'limi darslarida,sinfdan tashqari ishlarda applikatsiyalar uchun rangli qog'ozlar, mato, to'garklarda yana somon tayoqchalari. Urug'lar, quritilgan yaprokdar, gullarning yaproqlari, paxta va boshqalar ishlatiladi.

O'zining mazmuniga ko'ra applikatsiyalarni predmet, sujetli,ornamental va shriftli turlarga bo'lish mumkin.

Qoidasiga ko'ra ular, bir xil yoki turli xil ranglarda tayyorlanishi mumkin. Predmet applikatsiyalari (yaproq, mevalar, sabzavotlar, gullar, qo'ziqorin, hashoratlar) geometrik shakllarni teng qismlarga kesib hosil qilinadi.

Ular oddiy va kichik yoshdagi maktab o'quvchilari bemalol ularni tayyorlashlari mumkin. Sujetli (biror ma'noga ega) applikatsiyalar bir necha xil shakllardan tashkil topib, ular dinamik ravishda harakatlanadigan qilib bajarilishi ham mumkin. Sujetli applikatsiyalar o'quvchilar ixtiyoriga qarab qishloq ho'jaligiga

oid, sanoatga oid, quruvchilikka oid badiiy fantastikaga oid mavzularda bajarilishi mumkin.

Siluetil (bir rangli) applikatsiyalarda barcha shakllar bir xil rangdagi qog'ozlardan qirqib ishlanadi. Tuk rangli fonga yorug' rangli qog'ozdan qilingan applikatsiyalarni elimlab, juda chiroyli siluetil sujetlarni olish mumkin, lekin bunda juda qattiq mehnat talab qilinadi.

Naqshli applikatsiyalardan albomlarni, devoriy gazetalarni, taklifnomalarni, saxna dekoratsiyalarni, kiyimlarni bezash ish ob'ektlari yasatishda qo'llaniladi. Xonalarni jihozlashda mavzu tekstariga katta joy ajratiladi. Shuning uchun ham rangli qog'ozlardan qilingan shriftli applikatsiyalarning ahamiyati juda katta. Ular bilan sarlavhalar, shiorlar, plakatlar, o'quv tablitsalari bezatilishi mumkin.

Applikatsiyalarni tayyorlanish usuliga qarab tekis va xajmli turga ajratish mumkin. Tekis applikatsiyalarni qog'ozdan, matodan, charm va boshqa materiallardan qirqib tayyorlanib, ularni qog'ozdan kartondan yoki matodan qilingan asosga yelimlanadi.

Ba'zi xollarda qog'oz detallarni yirtish usuli bilan olinadi. Bunday detallarning qirralari tekis bo'lmaydi. Applikasiyaning bu turidan hayvonlarni, daraxtlarni, qorni va shu kabilarni hosil qilishda foydalaniladi. Yirtib olingan detallarning qirralari paxmoklikni, g'adir-budirlikni ifodalaydi.

Applikatsiyalar naqshlarini rangli qog'ozning kichik-kichik bo'laklaridan qirqib tayyorlash mumkin, bu detallarni qaychi bilan qirqib yoki yirtib hosil qilish mumkin. Qog'oz naqshlarni kontruli va yuzali tasvirlarni ifodalashda ishlatiladi.

Qog'ozdan yasalgan applikatsiyalar bir qatlamli va ko'p qatlamli bo'ladi. Bir qatlamli ishlarga butun asos bo'ylab to'liq va qisman elimlanadi. Ko'p qatlamli applikatsiyalarni bajarishda katta detallar ustiga 2-3 qatlam qilib boshqa rangdagi kichik, detallar yelimlanadi. Masalan: yo'l belgilarini ishlashda ko'p qatlamli applikatsiyalardan foydalanish mumkin.

Kiyimlardagi applikatsiyalar moda elementi hisoblanadi. SHakllar gazlamalardan qirqib olinib bularga petlya choklar bilan tikib chiqiladi.

Xajmiy applikatsiyalar.

O'quvchilar amaliy ishida ba'zi xajmiy ko'rinishga ega bo'lgan xajmiy applikatsiyalar keng o'rin tutadi. U o'quvchilarni badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ularni tayyorlash usullariga qarab 4 ta guruhga bo'lish mumkin.

1. Alohida elementlarni asos foniga o'z tekisligining faqat bir qismi bilangina elimlanadi. Applikatsiyalar detallarining elimlanmagan qismi ko'tarilib turadi. Agar gullar ko'p yaproqchali bo'lsa gulning eng pastki yaproqchalari to'la yelimlanib, ustkilari engil ko'tarilib turadi, ustki qatlam yaproqchalari faqat markaz qismi bilan yelimlab yopishtiriladi.
2. Bukilgan muqova shakli detallar o'zining tekisligining 2/3 qismida yelimlanadi.
3. Fonga (applikatsiya asosida) xajmli detal (quti, avtomobil va boshqa), somon, qor o'niga paxta va boshqalar yopishtiriladi.
4. Ba'zi detallar (gul o'zagi, yoki yaprokdari) bukilgan qog'ozlar yopishtirilib bular material xajmini tashkil etadi.



Matodan applikatsiya tayyorlash.

Kashtado'zlik – xalq amaliy san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri.

Matolardan applikatsiya tayyorlash – kashtado'zlikning bir ko'rinishi. Applikatsiyada kashta bajarish – biror matodan tanlangan fonga boshqa mato parchasini mahkamlashdan iborat. Matolar tikish yoki yelimlash usullari bilan fonga

mahkamlanadi. Matodan tayyorlanadigan applikatsiyalar predmetli, manzarali yoki naqshli; bir, ikki yoki ko'p rangli bo'lishi mumkin.


Matodan applikasiya tayyorlash uchun ma'lum malakalarni egallagan bo'lishlik talab qilinadi. Birinchidan matoni qirqishni bilish kerak (matoni qirqish qog'ozni qirqishga nisbatan qiyinroq), ikkinchidan mato qirqilganda uning chetlaridagi iplari tarqalib ishni murakkablashtirishi mumkin.



Somondan applikasiya tayyorlash.

Belorussiya, Ukraina va Moldovalik xalq hunarmandlari orasida somondan har xil narsalar yasash keng ommalashgan. Ular somondan bo'ya, sumkalar, gilamchalar va turli o'yinchoqlar yasaydilar. Rossiyaning ayrim viloyatlarida qutichalar, nafis sandiqchalar, ramkalarga somondan naqshlar tushiriladi.

Somondan tayyorlangan applikatsiyalar juda chiroyli bo'lib, oltin rangida tovlanib turadi. Somon tolalarining bo'ylama joylashgani va yaltiroqligi uchun shunday manzara hosil bo'ladi. Somon tolalari faqat ma'lum vaziyatda yorug'likni eng ko'p qaytaradi. Yorug'likka nisbatan har xil burchakda joylashgan somon tolalaridan bajarilgan applikasiya oltin kabi yarqirab takrorlanmas manzara hosil qiladi. Somon applikatsiyalari zamonaviy uylar interyeriga ham mos tushadi. Somondan chiroyli suvenirlar tayyorlash mumkin. Bular kartinalar, naqshlar, quticha va ramkalar bo'lishi mumkin. Katta yoshdagi bog'cha bolalari somondan applikasiya yasashni oson o'rganib oladilar. Ish uchun to'g'ri burchakli shakldagi predmetlar: uy – kvadrat, tom – uchburchak, archa – uchburchaklar to'plamidan tashkil topgan, qo'ziqorin – ildizi tepaga qarab qisqarib boradigan tasma, qo'ziqorin sallasi – yarim aylana. Somondan applikasiya tayyorlashda 3-4 nafar bolalardan iborat kichik guruhlarda mashg'ulot tashkil etish maqsadga muvofiq.



Qurilgan maysalardan applikasiya tayyorlash.

Hozirgi vaqtda gullar, o'simliklar, barglardan applikasiya tayyorlash – floristika keng ommalashib bormoqda. Katta yoshdagi bog'cha bolalari tabiiy materiallardan applikatsiyalarni qiynalmasdan bajara oladilar. Bu mashg'ulot ular

uchun qiziqarli va foydali bo'lib, tabiatni yaqindan o'rganishlariga ham yordam beradi. Bu jarayon bolalarning ijodkorligi, fikrlashi, kuzatuvchanligi, mehnatsevarligi, badiiy didini rivojlantiradi.

Tabiatdan ranglarning takrorlanmas rang-barangligi va tayyor mukammal shakllarni olish mumkin. Tabiiy materiallar bilan mashg'ulotlarni o'tkazish bolalarni tabiatni sevishga, uni asrab-avaylashga o'rgatadi.



Terak momig'idan applikasiya tayyorlash.

Har bahorda teraklarning momig'i yer ustini qor kabi qoplaydi. Bu momiqlarni yig'ib qo'yib keyinchalik ulardan yelim va bo'yoqlarsiz juda chiroyli applikasiyalar tayyorlash mumkin. Terak momig'idan tayyorlangan applikasiyalar bir xil rangli bo'lib grizaylni eslatadi. Ular mayin, yengil va nafis bo'ladi.

Qog'oz applikasiyalar kabi terak momig'idan tayyorlangan applikasiyalar ham predmetli, mavzuli va bezakli bo'lishi mumkin. Predmetli applikasiyalarning mavzulari har xil bo'lishi mumkin. Mavzu tanlaganda detallar kam bo'lib, ular yirikroq bo'lsa ishni bajarish oson bo'lishini hisobga olish kerak.

Tasvirlanadigan hayvonlar, qushlarni momiq gavdalilarini: quyon, mushuk, o'rdak, jo'jalar, duxoba o'yinchoqlar, moychechak boshchalari kabilarni tanlash zarur. Applikasiyalarni oq-qora rasmlar yoki rangli fotosuratlariga qarab bajarish oson. Manzarali applikasiyalarda qish manzaralari, akvariumdagi baliqlar kabilari chiroyli chiqadi. Bezakli applikasiyalar o'zgacha ko'rinishda bo'lib, original chiqadi. Bular naqshlar, har xil shakldagi bezaklar bo'lishi mumkin.



Qorbobolar



Quyov

Xonalarni bezatish ishlari. Applikatsiyalar yordamida juda qisqa vaqt davomida sinf xonalarini, kabinetlar, zallarni, yotoqxonalarni bezash mumkin. Alohida bezak elementlari uchun o`quvchilar rangli qog`ozdan qirqib olingan shriftli yozuvlarni, gullarni va shu kabilarni (dekorativ elementlarni) ishlatish mumkin.

Applikatsiyalarni qo'llash usuli bilan o'quvchilar devoriy gazetalar chiqaradilar, burchaklarni bezatadilar, ertaliklarga plakatlar va dekoratsiyalar, bayram namoyishlariga gullar tayyorlaydilar.

Bolalarga bayroqlar boshqa geometrik, simmetrik shakllarni chiqarish uchun chizma berilishi va u asosida turli shaklli detallar ishlanishi mumkin. SHu asosda yangi shakllar o'ylab topishlari mumkin. Barcha sinf o'quvchilarni bu ishga jalb qilish mumkin.

Bayramlar uchun plakatlarni o'quvchilar rasm daftarining betlariga bajaradilar. Qobiliyatli bolalar kattaroq o'lchamdagi plakatlarga bajararishlari mumkin. SHu tariqa sinf tabiat va mehnat burchaklarini, dars jadvalini bezatishlari mumkin. Turli mavzularda bayramga tayyorgarlikda applikatsiyalarni har xil ob'ektlar badiiy naqshlardan foydalanib bajaradilar.

Bolalar oromgohlarda o'yinlar, karnavallarda kaxramonlar bilan uchrashuvlar, konkurs va bellashuvlar ko'p o'tkaziladi. SHunday paytlarda bolalarga hamma vaqt o'z yoshlariga mos va chiroyli applikasiya tayyorlash qo'l keladi.

Applikatsiyalar bilan quti, papka, mashina modellari va boshqa buyumlar bezatiladi, applikatsiyalarni yana kitoblar, ko'rgazmali qurollar tayyorlashda bezak ishlarida foydalaniladi.

3.O'QUVCHILARNI APPLIKATSIYA BAJARISHGA O'RGATISH

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar applikasiya bajarish bilan boshlang'ich sinflardagi matematika, texnologiya darslarida qisman shug'ullanadilar. Ular bu darslarda qog'ozlardan geometrik shakllar qirqish hamda murakkab bo'lmagan shakllardagi applikatsiyalarni bajarishni o'rganadilar. Applikasiyaning zamonaviy yangi turlari, bajariladigan ishlarga ijodiy yondashib, yangi turdagi badiiy mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan usullaridan foydalanish mauktab darsliklaridan tashqarida qolib kelmoqda.

Applikatsiya tasviriy san'at turlari orasida bolalar uchun eng qiziqarli turlaridan biri ekanligi aniqlangan. Bolalarni foydalaniladigan qog'ozlarning yorqin ranglari,

shakllarni ritmik joylashuvi quvontiradi. Qog'oz qirqish va uni elimlash jarayoni bolalarda katta qiziqish uyg'otadi.

Applikatsiya bajarish jarayonida bolalar yangi bilimlarni egallaydilar, boshqa mashg'ulotlarda olingan tushunchalari mustahkamlanadi. Bolalar tasviriy faoliyatining hamma turlari, shuningdek applikatsiya bajarish ham ularda ma'lum bir bilimlarni shakllantirish, ko'nikmalarni rivojlantirish, malakalarni mustahkamlash va shaxs tarbiyasiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Applikatsiyaning o'ziga xos tomonlari bolalarda rang haqidagi bilimlarni faol egallashlarida, buyumlarning tuzilishi va o'lchamlari haqidagi tushunchalari rivojlanishida, tekis shakllar va kompozitsiyalar haqidagi bilimlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Applikatsiyada qirqib olingan shakllarni o'rni o'zgartirish, taqqoslash, bir bo'akning ustiga ikkinchisini qo'yish kabi ko'plagan imkoniyatlar mavjud. Bu ko'nikmalar kompozitsion bilim va ko'nikmalarni tez egallashga sharoit yaratib, mavzuli va bezakli applikatsiyalardan tashqari rasm solish uchun ham zarur hisoblanadi.

Applikatsiya – tasviriy faoliyatning bezak-siluetli shakllaridan biridir. Tasvirlarni qog'ozdan qirqib yasash ma'lum uyg'unlikni yaratadi. Bunda bolalarda qo'l harakatlari koordinatsiyasi, o'z-o'zini nazorat qilish, qog'oz va qaychida ishlashda esa texnik malakalar shakllanadi.

Applikatsiya jarayonidagi ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalari bolalarda buyumlar va atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini badiiy obrazlar yordamida ifodalash ko'nikmalari shakllanadi. Pedagog bolalarni badiiy ijodga o'rgatish jarayonida ularni atrofimizdagi olamga estetik munosabatda bo'lish, bolalar ruhiy taassurotlarining boyishi, individual qiziqishlari, qobiliyatlarining shakllanishiga yordamlashishi kerak.

Applikatsiya mashg'ulotlari bolalarning estetik sezgilari, sensor harakatlarini rivojlantirish masalalarini hal qilishga yo'naltiriladi:

- Barcha sezgi organlarining rivojlanishi (ko'rish, eshitish, harakatlanish, fazo va vaqtni qabul qilish);
- Harakat uyg'unliklarining shakllanishi;

- Ko`rish va harakatlanish organlarining uyg`unlikda harakatlarining rivojlanishi;
- Hodisa va ob'ektlarning tez va tabaqalashtirib qabul qilish malakalarining shakllanishi;
- Hodisalarni so`z orqali ifodalash ko`nikmalarining shakllanishi.

Keng ma'noda tahlil qilinadigan bo`lsa, ijodkorlik – yangi, o`ziga xos biror narsani yaratish sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun ham ijodkorlik (badiiy asar, g`oya, mexanik asboblari,...) darajasini olingan natijalarning yangiligi belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, ijodiy faoliyat natijasining yangiligi ob'ektiv xarakterga ega bo`lib, bunda ilgari mavjud bo`lmagan mahsulot yaratiladi. Bunda ijodkorning individualligi ham ochiladi.

Bolalar ijodkorligi o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Bolalar ish jarayonida ko`plagan yangiliklar yaratadilar va ba`zan rasm, konstruktsiyalar ko`rinishida original mahsulotlarni ham taklif qilib qoladilar.

Bunda bolalar uchun mahsulotni yaratish jarayoni asosiy ahamiyatga ega bo`ladi. Bu jarayondagi bolalarning faoliyatida yuqori ruhiy ko`tarinkilik, har xil echimlarni ko`p martalab tekshirib ko`rish va izlab topish va undan alohida qoniqish hissini hosil bo`lishi kuzatiladi (A.V.Zaporjets, N.N.Poddyakov, L.A.Paramonov va b.). Kattalar uchun muammo echimini izlashni boshlash (uni anglab olish, echim usullarini izlash) bosqichlari eng qiyin va mashaqqatli bosqich hisoblanadi. Yosh bolalar esa kattalardan farqli ravishda, agar kattalarning keskin bosimi bo`lmasa bunday qiyinchiliklarni sezmaydilar. Ular osonlik bilan, ko`p hollarda o`zlari sezmaganda holda muammoga amaliy yondashib echim izlab boshlaydilar. Bu faoliyat asta-sekinlik bilan aniq maqsad sari yo`nalib, ko`pincha ijobiy natijalarga olib keladi.

Ijodkorlikning shakllanishida tasavvur qilish, yoki fazoviy tasavvurning ahamiyati juda katta (L.S.Vigotskiy, V.V.Davidov va b.). aynan rivojlangan ijodiy tasavvur ijodkorlikning asosi bo`lgan yangi obrazlarning yaratilishiga sababchi bo`ladi.

Tasavvur qilish jarayoni har bir shaxsda o`ziga xos bo`lib, buning natijasida shaxs ichki dunyosi va qarashlari: “boshqalarning ko`zi bilan qarash”, mavjud

ahvolni o'zgartirishga intilish, ma'lum narsalardan yangiliklarni izlab topish kabilar shakllanadi.

A.V.Zaporojets bolalar ijodiyoti amalda mavjudligini, ularning namoyon bo'lish turlarini qo'llab-quvvatlash va boshqarish, bolalarni ijodkorlikka undovchi va rivojlantiruvchi metodlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. U badiiy faoliyat turlariga, ayniqsa tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlariga katta ahamiyat berish zarurligini ko'rsatib bergan. San'at turlari bolalarga katta ruhiy tajriba beradi.

Bolalarning tasviriy faoliyatiga qiziqish bola shaxsining uyg'un rivojlanishi bilan bog'liq. Anglab olish, xotira, tasavvur, diqqat kabi xususiyatlar o'yin va mashg'ulotlar jarayonida rivojlanib, bolalar yoshiga mos holda ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metodlarga bog'liq bo'ladi.

Badiiy faoliyatda ijodkorlikning namoyon bo'lish shartlaridan biri – bolalarning turmushini qiziqarli va mazmunli tashkil qilish: atrofimizdagi olam hodisalarini kuzatishni to'g'ri tashkil etish, san'at asarlari bilan tanishtirish, moddiy ta'minlanganlik, shuningdek har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini hisobga olish, bolalar faoliyati natijalariga ehtiyotkorlik bilan yondashish, vazifalarni bajarishga intilish va unda ijodiy muhit yaratish bilan bog'liq.

Katta yoshdagi bog'cha bolalarining tasviriy faoliyati rasm solish, turli materiallardan mahsulotlar yasash, applikatsiya va konstruksiyalashlardan iborat bo'ladi. Bularning har biri bolalarda atrofimizdagi olam haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanishiga turlicha xizmat qiladi.

Applikatsiya bilan shug'ullanish jarayonida bolalar har xil buyumlarning sodda shakllari bilan tanishadilar. Ularning alohida qismlarini yoki siluetlarini qirqib olib elimlashni o'rganadilar. Siluet tasvirlar yaratish muallifdan xayolan va tasavvurda katta hajmdagi ish bajarishni talab qiladi, chunki ko'pincha siluetda buyumning asosiy xususiyatlarini ko'rsatadigan detallar bo'lmaydi.

Applikatsiya bilan shug'ullanish matematik tasavvurlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Bolalar oddiy geometrik shakllar va ularning nomlanishi bilan tanishadilar, buyumlarning fazoviy vaziyatlari va ular qismlarinig o'zaro vaziyati (o'ng, chap, burchak, markaz), hamda kattaliklar (katta, kichik) haqidagi

tasavvurlarni o'rganadilar. Ushbu murakkab tushunchalar bolalarning bezakli naqshlar bajarishlarida yoki buyumni qismlari bo'yicha tayyorlashda oson o'zlashtiriladi.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda rang, ritm, simmetriya kabi tushunchalar shakllanib, badiiy did rivojlanadi. Bolalarga har xil rangdagi qog'ozlarni namoyish qilib, ularda uyg'un ranglardan foydalanib kompozitsiya tuzish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Ritm va simmetriya tushunchalari bilan bolalar dekorativ bezak elementlarini joylashtirishda tanishib, o'rganadilar.

Applikatsiya bilan shug'ullanish bolalarni ishni rejali tashkil qilishga o'rgatadi. Bu xususiyat applikatsiyada juda muhim hisoblanadi, chunki qismlarni ketma-ket joylashtirish (avval yirik shakllar joylashtirilib, keyin detallarni o'rnatiladi; manzarali ishlarda avval fon, keyin boshqalari bilan berkitiladigan ikkinchi plan buyumlari va oxirida birinchi plan buyumlari elimlanadi) applikatsiya bajarishning asosi hisoblanadi. Applikatsiya bajarish orqali bolalar qaychidan foydalanish, qog'ozni aylantirib shakllarni to'g'ri qirqish, qog'oz listida shakllarni tekis joylashtirish eabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Applikatsiya – badiiy ishlarni yaratishning eng sodda va oson shakli bo'lib, bunda tasvirning realistik asosi saqlanib qoladi. Bu applikatsiyadan faqatgina bezash ishlari (har xil o'yinlar uchun ko'rgazmali qo'llanmalar va vositalar tayyorlash, o'yinchoqlar, bayroqchalar, bayram suvenirlari, devoriy gazetalar, ko'rgazma va xonalarni) da emas, balki kartinalar va naqshlar yaratishda ham keng foydalanishga imkon beradi.

Siluetlilik, obrazning tekis shaklda umumlashtirib talqin etilishi, ranglarning bir xilda berilishi kabilar applikasiyaning asosiy belgilari hisoblanadi.

Applikatsiya kiyimlar, poyafzallar, turar-joy binolari, uy-ro'zg'or anjomlari kabilarni bezashda qadim zamonlardan qo'llanilib kelingan. Juda qadim zamonlarda har xil teri parchalarini bir-biriga ulab kiyim tayyorlash bilan bir vaqtda applikatsiya ham vujudga kelgan deb hisoblash mumkin.

Turli xalqlarda applikatsiyalar uchun har xil materiallar ishlatilib kelingan. Chet ellik ko'plagan mashhur rassomlar ham applikatsiyaga katta e'tibor qaratishgan. Frantsuz rassomi Anri Matissning applikatsiyalari o'ziga xos. Ularda rang asosiy rol o'ynaydi. Matiss ranglar bir-birini to'ldirib turishi kerak, yo'qotishi emas, deb hisoblagan. U ranglarda tomoshabin hissiy tuyg'ulariga ta'sir qiluvchi kuch bor deb hisoblagan.

Matiss har bir applikasiya uchun 4-5 ta ton tanlab olib, shular orqali mazmun va ranglar boyligini ifodalagan. Matiss tomonidan yaratilgan afsonaviy Ikar obrazi, "Qizil shapkacha" ertagi qahramoni obrazi kabilar applikasiya imkoniyatlari va o'ziga xosligiga misol bo'ladi.

Ukraina va Belorussiyada vitinyankalar – qog'ozdan qirqilgan naqshli bezaklar bajarish qadimdan urf bo'lgan. Vitinyanka rangli qog'ozdan qirqib olingan sodda bezaklar bo'lib, aniq konturlarga ega bo'ladi. Eng sodda vitinyanka qog'ozni ikkiga buklab bajarilgan. Ikkiga buklangan qog'ozdan daraxtlar, vaza, qushlar, bir necha marta buklanganlaridan doira bo'lib raqsga tushayotgan odamlar tasvirlari yasalgan. Applikasiyaning bu turi bilan ko'pincha qizlar va ayollar shug'ullanishgan.

Qog'ozdan sodda manzarali kartinalar ham tayyorlaganlar.

4.O'QUVCHILARNI APPLIKATSIYA BAJARISHGA O'RGATISH VA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Applikatsiyalar bilan quti, papka, mashina modellari va boshqa buyumlar bezatiladi, applikatsiyalarni yana kitoblar, jadvallar, ko'rgazmali qurollar tayyorlashda bezak ishlarida foydalaniladi.

Yorqin ranglarga bo'yalgan qog'ozlardan applikasiya bajarish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng qiziqarli va oson o'rganish mumkin bo'lgani hisoblanadi. Material o'zining ko'rinishi, unga ishlov berishning osonligi bolalarni ijodiy faollikka undaydi, qo'lda ish bajarishni oson o'rganishga imkon beradi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir yosh guruhlarida applikasiya ta'lim dasturi vazifalarini e'tiborga olgan holda maxsus materiallar va jihozlar: fon

va applikatsiya elementlari uchun qog'ozlar, qaychilar, yelim, mo'yqalam, shakllarni yelimlashda ishlatiladigan tagliklar, qog'oz chiqindilari uchun qutichalar, toza qo'l sochiqlari bo'lishi kerak.

Fon uchun ko'pincha qalin qog'oz tanlanadi, qog'oz rangi tasvir mazmunini e'tiborga olib, biror vaziyatni bo'rttirishga xizmat qiladi. Masalan gullarni dala yoki o'tloqning yashil fonida joylashtiriladi, qushlar silueta zangori osmon foniga yelimlanadi, baliqlar bo'lsa daryo yoki dengizning ko'k foniga joylashtiriladi.

Bolalar applikatsiya elementlarini sirtiga yaxshi ishlov berilgan, yumshoq, yorqin rangli qog'ozlardan qirqib oladilar.

Bolalarga ishlash uchun uzunligi 120 mm atrofidagi uchlari dumaloq qaychilar beriladi. Bayramlar yoki tadbirlarni bezash uchun applikasiyalar tayyorlashda katta qaychilardan foydalanish ham mumkin. Chunki katta qaychilar bilan yirik elementlarni qirqish oson bo'ladi. Qaychilar qutilarda yoki maxsus tagliklarda xalqalarini yuqoriga qaratib qo'yib saqlanadi. Qaychidan foydalanishda bolalarni ehtiyot bo'lishga o'rgatish kerak.

Shakllarga yelim surtish uchun mo'yqalamlar tayyorlangan shakl kattaligini e'tiborga olib tanlanadi. Jamoa bo'lib applikatsiya bajarishda ikki xil kattalikdagi mo'yqalamdan foydalaniladi. Katta sirtlarni yelimlash uchun enli yassi mo'yqalamlar ishlatiladi. Ish yakunlanganidan keyin mo'yqalamlar yuvilib, taglikda mo'ylarini tepaga qaratib joylashtirib qo'yiladi.

Shakllar kartoshka yoki unli yelimlar bilan yopishtiriladi. Uni tayyorlash uchun kartoshka yoki bug'doy uni kerak bo'ladi. U suvda suyultirilib, past olovda qizdiriladi va qaynab ketmasligi uchun hamma vaqt aralashtirilib turiladi. Tayyorlanayotgan massa quyuq va tiniq rangga kirganidan keyin olovdan olinib, sovutiladi, keyin chinni yoki sopol idishlarga quyiladi.

Shakllarning ostiga toza taglik qo'yilib, keyin yelim surtiladi. Taglik sifatida oq qog'ozdan foydalanish mumkin. Ish jarayonida yelim shaklning rangli tomonini ifloslantirmasligi uchun taglikni almashtirib turish kerak.

Qog'oz chiqindilari maxsus qutichaga yig'ib boriladi.

Qog'oz va boshqa materiallar hamda asboblari bilan ishlash jarayonida bolalar ko'plagan foydali ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Ular qog'ozga ishlov berish: uni ikkiga yoki ko'p qatlamli qilib bukish, qirqish, yelimlash kabi amallarni bajarishni o'rganadilar. Mashg'ulotlarda bolalar qog'ozning har xil turlari (rasm solish, chizma chizish, o'ramlar uchun, gofirovka (qat-qat) qilingan va h.) bilan tanishadilar, ularning xususiyatlarini o'rganib boradilar. Bolalar qog'ozlar faqat har xil ranglarda bo'lib qolmasdan, sirlari ham turlicha: yaltiroq, silliq, jilolanuvchan, xira, g'adir-budir, yupqa, qalin bo'lishini bilib oladilar. Masalan, bo'sh qog'ozga qo'lda ishlov berish oson bo'lib, undan chiroyli shakllarni yaratish mumkin.

Simmetrik qirqib olish usullari bilan applikasiya bajarishda qog'ozning elastiklik xususiyati muhim ahamiyatga ega. Agar qog'oz sinadigan bo'lsa buklamlarida o'riqlar paydo bo'lib applikasiyaning estetik ko'rinishi buziladi va xatoning to'g'rilash imkoni bo'lmasdan, bolalarga ishlaridan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Shuning uchun bunday xollarda egiluvchan va yumshoq, ishlov berish oson bo'lgan qog'oz tanlanadi.

Kollaj.

Kollaj (frantsuzcha: *So11age* – yelimlash, yopishtirish) – tasviriy san'atning biror asosga rangi va fakturasi har xil bo'lgan materiallar (mato, to'r,teri, po'stloq, yog'och, folga metall va h.) ni yopishtirib hayvonlar yoki biror grafik manzara yaratish texnikasi. Applikasiyadan farqli ravishda kollaj kompozitsiyasida hajmli materiallardan ham foydalanish mumkin. Kollajda hajmli materiallar butunicha yoki ularning fragmentlari (idish-tovoq, sport inventarlari, soatlar, plastinkalar, tangalar va h.) ishlatilishi mumkin.

Rassom har xil badiiy tasvirlash texnikalaridan birgalikda foydalanishi: applikasiya va kollajni birgalikda ishlatishi, rangtasvirda ishlangan kartinaga kollaj kiritishi kabilar ham mumkin. Bularning hammasi takrorlanmas badiiy obraz yaratish maqsadida bajariladi.

O'quv mashg'ulotlarga tayyorlanar ekan tayyor applikasiyalar badiiy didi bilan, o'ziga xosligi bilan ajralib turishiga erishish kerak. Tayyorlangan applikasiyalarning go'zalligi sujetga, koloritiga, kompozitsiyaga, perespektivaga,

ya'ni tasviriy san'at asosiga va o'lchash, kesish, elimlash kabi mehnat usullarining toza bajarilishiga bog'liq. Bu masalani xal qilishga tasviriy san'at va mehnat ta'limi mashg'ulotlarini uyg'unlashtirish yo'li bilan erishiladi. Tasviriy san'at insonda yuksak go'zal xissiyot uyg'otadi, uni haqiqiy go'zallik bilan muloqotga kiritadi.

Boshlang'ich sinf mashg'ulotlaridagi kabi, keyingi mashg'ulotlarda ham o'qituvchi bolalarni musavvirlik, binokorlik ishlari, amaliy-bezak san'ati bilan tanishtirib boriaadi, badiiy asarlarni xis qilishni (bilish, tushunish) o'rganib boradi.

Tasviriy sanatning rassomlik, chizmachilikka xos xarakterli tomoni shundaki, tasavvurning real haqiqat bilan uyg'unlashuvidir.

Rassomlik rasmlari bo'yoqlarning hamma ranglari va ularning ko'p sonli soyalari bilan bajariladi.


Applikatsiya ishlari rang tasvirdan o'zining umumlashgani, asosiy shakllarining oddiylashgani bilan farq qilib, ranglar cheklangan bo'ladi, bir nechtagina ranglardan foydalaniladi. Ba'zi mavzuli applikatsiyalarni shakli va ranggi bo'yicha ancha real bajarish mumkin.




Chig'anoqlar



Rangli toshlar



Bezakli panno



Guldasta

Applikatsiyalarga oid mashg'ulotlarda o'qituvchilar tushuntirish, suhbatlashish vaqtida tasviriy san'at janrlari haqida, amaliy-bezak san'ati bilan bog'liq tomonlarini ko'rsatib ma'lumotlar berib boradilar. Bularni o'qituvchi buyumni tayyorlashdagi va uni bezatishdagi mehnat jarayonlari uyg'unlashuvchi buyumni tayyorlashda namoyish qilishga intilishi mumkin.

Stilizatsiya xayotda qayd qilingan hamma narsalar xalq ustalarining ishlarni tuzishdagi asosiy manbaidir. Ornamental naqshlar elementlari atrofdagi tabatdan olinadi, ranglarning ritmik almashuvida va shakllarning simmetrik, assimetrik asosda takrorlilikda hosil bo'ladi. Bunda stilizatsiya o'ziga xosligi tabiiy shakllar umumlashgan, xolda aks ettiriladi. Mana shu dekorativ naqshlarning yaratish uchun ranglarni imkoni boricha o'zgartirib tabiiy shakllarni hosil qilish «stilizatsiya» deyiladi. Masalan, «Lola» rasmini turli ranglar soyasida yasalishi bunga misol bo'ladi. Lola tasviriy kashta uchun tasvirlashda ham, geometrik shakllar orasida tasvirlashda ham stilizatsiyalangan tasvirlarni ko'rish mumkin.

Ornamentda o'simliklar, geometrik, simvolik elementlar qo'llaniladi. O'simlik ornamenti ranglar bilan g'unchalar bilan yaproklar bilan silliq rivojlanuvchi ketma-ketlikdan tarkib topadi. Bunday naqshlar bilan arxitektura inshootlari, gazlama buyumlari, teri maxsulotlari bezatiladi. Daraxtlarni, fosfor buyumlarni, metall buyumlarni bezashda foydalaniladi. Geometrik naqshlar ham ko'pchilik holda o'simlik shakllaridan tarkib topib, bu shakllar stilizatsiyalashtirilib mayda kvadratlar, nuqtalar, polosalar, uchburchaklar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Geometrik naqshlarning gilamchilikda, yog'och o'ymakorligida foydalaniladi. Ornament motivida ba'zan simvolik belgilardan ham foydalaniladi. Masalan, bayroqlar, yulduzchalar.

Ornament naqshlarda ko'pincha hayvonlarning, qushlarning, hashoratlarning stilizatsiyalashgan ko'rinishlaridan foydalaniladi. Ornament naqshlarda asosiy tomoni uning ritmikligi turli naqsh elementlarining takrorlanishidir. Yopiq ornament naqshlar kvadratlar, uchburchaklar, doiralar kabi geometrik shakllar bilan to'ldiriladi.

Gazlamalarda, gulqog'ozlarda naqshlarni tanlangan setkalardan foydalaniladi, naqshlar butunlay yuzani qamrab oladi va ularni xoxlagan tomonga qisqartiradi yoki kengaytiradi. Mavjud xom-ashyodan tanlangan naqshlar kompozitsiyasining tanlangan bezagining ranglar masalasi milliy urf-odatlariga bog'liq.

5. APPLIKATSIYA BAJARISH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR VARIANTLARI VA DIDAKTIK VOSITALAR TAYYORLASH

Applikatsiya teatr sahnalarini badiiy bezashda, milliy va zamonaviy kiyimlarda, o'ramlarni bezash ishlarida hozirgi kunda ham keng qo'llaniladi. Applikatsiya shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalarida va umumta'lim maktablarida va ixtisoslashtirilgan badiiy o'quv dargohlarida bolalar va o'quvchilarga bilim berishda faol qo'llaniladi.

Mashg'ulot o'tkazishimiz uchun amaliyot davrining chegaralanganligi sababli biz o'quvchilar bilan qog'oz applikatsiyalar tayyorlash, shu orqali o'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qildik.

Qog'ozdan tayyorlangan naqshlar metallarga badiiy ishlov berishda, shuningdek sopol plitkalarga naqshlarni tushirishda ko'p ishlatiladi. Qog'oz bezaklar shuningdek teatr sahnalariga dekoratsiyalar tayyorlashda ham keng qo'llaniladi.

O'quvchilarni qog'oz applikatsiyalar bajarishga o'rgatishdan avval ularga qog'ozning yaratilishi va undan amaliy foydalanishlarning boshlanishi haqidagi ma'lumotlarni ham berib o'tish kerak bo'ladi. Qog'oz dastlab Xitoyda kashf etilib keyinchalik uni koreyslar (VI asr) ham tayyorlab boshlaganlar. Qog'oz tayyorlash usuli juda ko'p vaqtlargacha sir saqlanib kelingan. Qog'oz tayyorlash bilan bog'liq ko'plagan ixtirolar xitoyliklar bilan bog'liq. Uni gruntlash, turli qoplamalar bilan qoplash, rang bilan ishlov berish usulari Xitoyda yaratilgan. Qog'oz ixtiro qilinishi Xitoy yozuvining takomillashishi bilan bir qatorda tasviriy san'at rivojlanishida ham muhim o'rin egallagan. Qog'oz va tush sababli Xitoy rangtasviri, estamp texnikasi rivojlangan, keyinchalik kitob nashr qilish yo'lga qo'yilgan.

Xitoyliklar qog'oz ishlab chiqarish monopoliyasini o'zlarida uzoq saqlab qola olmadilar. Qog'oz tayyorlash sirlarining qattiq saqlanishiga qaramasdan II asrdan boshlab Koreyada, III asrdan boshlab Yaponiyada ham qog'oz tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Birmuncha keyinroq VII-VIII asrlarda qog'oz tayyorlash Markaziy va O'rta Osiyo, Tibet, Himolay va Hindistonda ham tayyorlanib boshlagan. VIII asrlarda arablarning xitoyliklar ustidan ko'plagan janglardagi g'alabalaridan keyin xitoylik asir tushgan hunarmandlar orqali qog'oz tayyorlash sirlari arab dunyosida ham keng tarqalgan. Bu vaqtdagi qog'ozlar orasida Samarqandda tayyorlangan qog'ozlar o'zining sifati bilan juda mashhur bo'lgan.

Markaziy Osiyoda qog'oz birinchi bo'lib Samarqandda tayyorlanib boshlagan. Samarqand qog'ozi juda sifatli bo'lib chet mamlakatlarda ham qadrlangan. Yevropaga qog'oz Markaziy Osiyodan kirib borgan. Arablar Osiyo va Yevropada

qog`oz tayyorlab, savdo qiluvchi xalqlar sifatida bir necha yuz yillar monopolist sifatida hukmronlik qilganlar.

Qog`oz applikatsiyalar bajarish uchun qog`oz tolalarining yo`nalishini bilish kerak. Tolalar yo`nalishini aniqlashning ko`p usullari mavjud. Buning uchun to`g`ri burchak ostida uzunligi 15-20, eni 0,5 sm bo`lgan ikkita qog`oz tasma (biri bo`ylama yo`nalishda ikkinchisi ko`ndalang yo`nalishda) kesib olinadi. Ularni ustma-ust qo`yib bir uchidan tutib vertikal ko`targanda ko`ndalang kesilga qog`oz egiladi, bo`ylama kesilgani esa tikka vaziyatda qoladi

Qog`ozning shu xossasidan to`g`ri foydalanish kerak. Masalan, rasm chetlariga xoshiya qirqib olganda qog`ozni bo`ylamasiga qirqish kerak.

Applikatsiyalar uchun har xil qog`ozlar ishlatiladi. Sirti yaltiroq qog`ozdan foydalanilsa ish yaxshi chiqadi. Uni bo`yash, kesish va yelimlash oson. Yaltiroq sirtidan yelimni olish ham oson bajariladi.

Sirti marmar rangli qog`ozlardan vazalar, naqshlar, harflar va raqamlarni qirqishda foydalaniladi.

Bosma naqsh tushirilgan qog`ozlardan applikasiya bajarishda kam foydalaniladi. Ular asosan harf, raqam va mebellarni tasvirlashda qirqib ishlatiladi.

Qog`ozlarni bo`yovchi vositalar.

Qog`ozlarni bo`yashda tush, avtoruchka siyohlari anilin va moy bo`yoqlar, guash, achchiq damlangan choy yoki kofe, piyoz po`stlog`ining qaynatmasi kabilar ishlatiladi.

Bo`yashda pulverizator, paxta, mato yoki parolondan foydalaniladi.

Chetlari qo`lda tutish uchun buklab kesib tayyorlangan bo`yoq eritmasi bilan oldin bo`yiga keyin ko`ndalangiga qoplanadi. Bo`yoq eritmasiga yana shu bo`yoqdan qo`shib uni qoramtir yoki ochiqroq qilish mumkin.

Marmar qog`oz moybo`yoqda bo`yaladi. Uni kerosinda eritib, sovuq suv solingan idishga quyiladi. Idish sirtida moyli dog`lar paydo bo`lganda qog`ozni buklangan chetlaridan tutib, moyli suvga botiriladi. Keyin bu qog`ozni quritib, sirtida har xil chiroyli marmar tasviri hosil bo`lgan marmar qog`oz hosil qilinadi. Bo`yalgan qog`ozlarni alohida papkalarda saqlash tavsiya etiladi.

Kraxmal (un) yelimi va yelim.

Kraxmal (un) yelimi va yelim – applikatsiya uchun zarur materiallar hisoblanadi. Ish sifati shu materiallarning sifatiga bevosita bogʻliq. Yelim dogʻ qoldirmasligi va rangni oʻzgartirmasligi kerak. Applikatsiya bajarishda sintetik kazein yelimlar koʻp ishlatiladi yoki ularni mustaqil ravishda tayyorlanadi.

Buning uchun qaynab turgan suvga sovuq suvda eritilgan kraxmal asta-sekinlik bilan quyib aralashtiriladi. Hosil boʻlgan massa quyushtirish bilan keyin u qaynashidan oldin olovdan olinadi.

Tarkibi: 1 choy qoshiq kraxmal, sovuq suv (kraxmalni eritish uchun), 0,5 litr qaynoq suv.

Kraxmal yelimi undan tayyorlanadi. Tarkibi: 2 choy qoshiq un, 6 choy qoshiq sovuq suv, 0,5 litr qaynoq suv.

Terak momigʻi bilan pinsetda ishlanadi. Oldindan echki siluetining rasmini qogʻozga tushiriladi. Keyin momiq bilan ish boshlanadi. Momiqni echki juni yoʻnalishi boʻyicha joylashtirishni pastdan boshlash kerak. Shu tartibda tepagacha moiqlar joylashtirib chiqiladi. Bunda PVA yelimidan foydalanish qulay

Yuqorida umumtaʼlim maktablarida toʻgʻarak mashgʻulotlarida applikatsiya bajarish ishlarini tashkil qilish va unda oʻquvchilarning yosh xususiyatlari hamda qobiliyatlarini hisobga olib mashgʻulotlar mazmunini shakllantirish metodlarini koʻrib chiqdik. Har bir oʻqituvchi taklif qilingan variantlarni oʻzgarishlar kiritib takomillashtirishi (soddalashtirishi yoki murakkablashtirishi) mumkin. Bu bilan oʻquvchilarning ishni bajarishga intilish va qiziqishlari ortadi, ularning badiiy ijodkorlik qobiliyatlari shakllanib, rivojlanishiga hissa qoʻshiladi.

Boshlangʻich sinf texnologiya taʼlimi darslarida applikatsiya ishlariga oid quyidagi mavzular boʻyicha amaliy ishlarni bajarish oʻrgatiladi:

1.Tabiiy materiallar haqida tushuncha. Tabiiy materiallardan “Oltin kuz” manzarasini tasvirlash.



2. Tabiiy materiallardan har xil shakldagi jonivorlar shaklini yasash.



3. Sabzavot va mevalarning urug‘idan applikatsiya usulida naqsh tuzish.



4. “Qish” manzarasini applikatsiya usulida qurish-yasash



5. Ikkiga buklangan qog'ozlardan qirqib, applikatsiya usulida naqsh yasash




6. 8-mart va navro'z bayramlariga qog'ozdan applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash




7. Urug'lardan applikatsiya usulida naqsh tuzish


8. Somondan applikatsiya usulida manzara, hayvonlar, gullar, jonivorlar shaklini yasash




9.Somondan applikasiya usulida peyzaj tayyorlash






10.Geometrik figuralardan applikasiyalar tayyorlash



Talabalarga mustaqil bajarishlari uchun quyidagi applikatsiya ishlarini tavsiya qilamiz:







5. Applikatsiyadan master klasslar

"Somonlardan qo'llash" master-klassi. Somonlar bilan dekorativ applikatsiya

Kuz - ajoyib vaqt! Atrofda qanday yorqin ranglar! Shuning uchun men ularni xotiramda saqlamoqchiman. Va ular buni qilishga yordam beradi, tabiiy materiallardan tayyorlangan hunarmandchilik yilning shu davrida yaxshi, ularning ko'pi bor. Ular bizning atrofimizda va oyoqlarimiz ostida va tepasida joylashgan. Bu safar e'tiborimni o'rib olingan javdar dalasiga qaratdim.

Men bir she'rni esladim:

G'amgin siqilgan dalalar,

Portlagan yer uxlab qoldi.

Odatdagi shov-shuvni eshitmang,

Faqat butalar nimadir haqida pichirlashadi.

Kuz yana g'amgin, afsuski,

To'qaylar orasidan barg oltinlarini g'ijimlaydi.

Pavel Mixalev (Veles)

Men kuzda xafa bo'lishni xohlamayman. Va agar siz qo'llaringizni va mehnatsevarlikni qo'ysangiz, g'ayrioddiy narsalarni olishingiz mumkin deb o'yladim. Bu, albatta, sizni va atrofingizdagilarni xursand qiladi. Sinashga arziydi! Qolganlaridan boshlaylik uyga olib ketish uchun somon, poyalari g'ijimlamasligi va egilmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan oling. Biz uydami keling, somonni saralaymiz, biz uni isitamiz va nafaqat isitamiz, balki u uchun hammomni tashkil qilamiz, uni suvda qaynatamiz. Agar qaynatsangiz, sir bor somonlar sirka qo'shilishi bilan u engil soyaga ega bo'ladi va agar soda bo'lsa, u oltin rangga aylanadi.

Hozir somon dazmollash kerak va buning uchun dazmol foydalidir. Biz kuyib ketmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan ishlaymiz!



Sizning e'tiboringizga plastilin qo'llanilishini taqdim etaman. Ish uchun biz igna, plastilinsiz o'n kubikli shpritslarni tayyorlashimiz kerak. Sizning e'tiboringizga shpon somonidan panellar tayyorlash bo'yicha master-klassni taqdim etamiz. Ushbu materialdan foydalanish juda oson, ishlar olinadi. Uslubiy ishlanma "Master-klass" O'z qo'llaringiz bilan somon qo'llash" Master-klass talabalar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun mo'ljallangan. Maqsad: sovg'alar qilish, hunarmandchilik tanlovlarida ishtirok etish, kvartiraning ichki qismini bezash. Maqsad: hunarmandchilikda somon poyasining imkoniyatlari bilan tanishtirish. Vazifalar: rejani amalga oshirish uchun ishni rejalashtirish, natijani oldindan ko'ra bilish va unga erishish qobiliyatini shakllantirish; somonni qayta ishlashning texnologik usullari va usullarini egallash; tasvirning ifodaliligini bildiradi.

Master-klassning borishi:

Nurlar va issiqlikning ta'siri Poyada yosh jon uyg'ondi, Unda kuchli choyshablar paydo bo'ldi Va mo'ylov va muloyimlik bilan gullaydi,

Yonayotgan gullar ochildi Go'yo ziyofatda, oltin kosa, Hammasi sharobga to'la; va har bir barg Yurakning mayin urishi yorqin edi. Konstantin Dmitrievich Balmont Tabiat ajoyib ustaxona. Hunarmandning qo'lida hamma narsa o'zining abadiy go'zalligini ochib beradigan g'ayrioddiy hunarmandchilikka aylanadi. Somon eng arzon tabiiy materiallardan biridir. Somon chiroyli va juda bardoshli tabiiy materialdir. Somondan tayyorlangan asarlar asl ko'rinishini o'zgartirmasdan uzoq vaqt davomida saqlanishi mumkin. Somon bilan ishlash juda qiziqarli va hayajonli. Fantaziya va ijodkorlikning chegarasi yo'q. Har safar men yangi, qiziqarli va g'ayrioddiy narsalarni o'ylab topishni xohlayman. Kompozitsiyalar juda yorqin, chiroyli. Ular har qanday kvartiraning ichki qismini bezashlari mumkin. Bu ishda doimo yangilik, izlanish, yanada mukammal natijalarga erishish imkoniyati mavjud.



Ish uchun bizga quyidagi materiallar kerak bo'ladi: - qaychi; - qalam, cho'tka; - bosing (har qanday og'ir narsalarni ishlatish mumkin); - idish (havza yoki pan); - PVA elim; - somon, uglerod qog'ozi, qora qog'oz, ramka (qog'oz ishlari uchun); - DSP yoki karton. Asboblardan ishlashda siz qaychi, tikanli narsalar bilan ishlashda asosiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilishingiz kerak. Qaychi bilan ishlashda xavfsizlik qoidalarini: Yaxshi sozlangan va o'tkir qaychi bilan ishlang. Qaychini halqalari bilan o'zingizga qaratib qo'ying. Kesish paytida pichoqlarning harakatini

kuzating. Qaychini ochiq qoldirmang. Qaychi halqalarini oldinga o'tkazing. Qaychi bilan o'ynamang, yuzingizga olib kelmang. Qaychidan to'g'ri foydalaning. Yelim bilan ishlashda xavfsizlik choralari: elim qo'llash uchun cho'tkadan foydalaning; elim yuzasini tozalash uchun peçete foydalaning; ishdan keyin elim yopiq bo'lishi kerak. somon yig'ish Somon — boshqoli don ekinlarining (javdar, bug'doy, suli, arpa, grechka, sholi) poyasi. Bog'da, o'rmonda yovvoyi donlar. Ish uchun siz tekis somonni tanlashingiz kerak. Ish uchun mo'ljallangan somon poyalari buzilmagan bo'lishi kerak. Javdar eng qattiq materialdir, lekin somonning diametri juda katta va somon chiziqlari eng kengdir. Eng yumshoq arpa, jo'xori va eng nozik rang. Somonni dalalarning chetlarida qo'lda yig'ish tavsiya etiladi. Mashinada emas, balki eng ildizda erdan kesilgan qo'l. Poya qalinlashuvlar bilan o'zaro bog'langan alohida segmentlardan iborat. Qalinlashlar tugunlar deb ataladi, segmentlar internodlar deb ataladi, ular rasmlarni yaratish uchun kerak bo'ladi. Somonni ehtiyotkorlik bilan bo'laklarga bo'linib, qalin tugunlarni (tizzalarni) kesib tashlang. Kesilgan somonlar poyabzal qutisida saqlash uchun qulayroqdir. Qopqoq varaqni echib oling. Integumentar barglar ham ishlatilishi mumkin, agar u g'ijimlangan bo'lsa - biz uni olib tashlaymiz. Butun varaq, u ham trubkaga o'xshaydi, biz uni ochamiz, avval uni suv bilan namlangan, choyshab tashqi tomondan mat, ichki qismi porloq. Bu xususiyat fon sifatida ishlatilishi mumkin. Yuqori somonni boshqoq bilan qoldirish mumkin. Biz guldastalarda hajmli tekislik ilovasini qilganda, biz quloqdan foydalanishimiz mumkin. Birinchi o'rim-yig'im, somon sutli etuklikda, hali yashil rangda, quloq faqat sarg'ayishni boshlaydi, u shunday soyaga ega bo'ladi. Ikkinchi hosil yig'im-terimdan bir hafta oldin. Agar haddan tashqari pishgan bo'lsa, u qo'pol.



Ishga somon tayyorlash. Ishlayotganda somon sinmasligi uchun uni qaynoq suvga solib qo'yish kerak, shundan so'ng somon juda elastik, bardoshli va osongina egilib, to'qiladi. Somonlar turli xil soyalarda tayyorlanishi mumkin. Oq rangga ega bo'lish uchun eng engil chiziqlarni tanlang va suv sarg'ayguncha somonlarni pishiring. Qaynayotgan suvni

to'kib tashlang, yangi suv qo'shing va yana qaynatib oling. Suv shaffof bo'lguncha operatsiyani takrorlang. Oxirgi qaynatishda 1 osh qoshiq qo'shing. 1. litr suv uchun sirka. Sariq rangga soda bilan erishiladi. Birinchi holatda bo'lgani kabi, somonlarni qaynatib oling, lekin 1 choy qoshiq qo'shing. litr suv uchun soda. Jigarrangni bir necha usul bilan olish mumkin. Issiq tayyorgarlikda siz chiziqlar kerakli soyani olmaguncha dazmollashingiz mumkin. Agar ish oxirida somon qolsa, uni quritish kerak. Aplikatsiya ishlarini bajarish uchun somon naychalaridan tekis lentalar yasash kerak. Somon naychalari qaychi yoki pichoqning o'tkir uchi bilan novda bo'ylab ehtiyotkorlik bilan kesilishi kerak.



Har bir chiziqni ikkala tomondan qaychining to'mtoq uchi bilan tekislang. Somon quriganida, uni old tomondan qaychi bilan dazmollab quriting.



Tayyor chiziqlarni rang bo'yicha qutilarga katlayin. Qo'llash texnologiyasi va somon stikerlari. Siz eskiz bilan rasm chizishni boshlashingiz kerak. Kerakli rasmni toping, uni qog'ozga o'tkazing. Rasmning har bir tafsilotini bir xil qog'ozga o'tkazing



Eskizdagi har bir elementni raqamlang. Ikkala tomonga o'tkazish uchun qog'ozdan nusxa ko'chiring, har bir element qog'ozga





PVA elimidan foydalanib, nusxa ko'chirish naqshini old tomondan juda ehtiyotkorlik bilan yopishtiring, bir qismini boshqasiga ehtiyotkorlik bilan qo'llang, bo'sh joy qoldirmang, ularni rang sxemasiga muvofiq tanlang.

Somon lentasini yopishtirish uchun uni noto'g'ri tomondan elim bilan yog'lang, uni qismga qo'ying va uni bosing. Agar gullar oq somon bo'lsa, barglari sariq, shoxlari jigarrang. Natijada, kontur bo'ylab ehtiyotkorlik bilan kesilishi kerak bo'lgan qismlarning blankalari olinadi



Kesish noto'g'ri tomondan amalga oshiriladi, chunki. qog'ozda, qismning konturining chizig'i ko'rinadi. Qaychi qog'ozni somon bilan birga kesib tashladi. Bu ishning yaxshi sifatiga erishadi, chiziqlar tekis, toza (siz qog'oz varaqlarini yopishtirilgan somon bilan issiq temir bilan dazmollashingiz va press ostiga qo'yishing





Olingan qismlarni gul yoki qora qog'oz varag'iga yig'amiz, kesib tashlaymiz. Biz tayyor elementlarni mato yoki yog'ochga yig'amiz (yaxshisi quyuq rangda), kompozitsiyani tashkil qilamiz. Biz qismlarni PVA elim bilan mahkamlaymiz. Shundan so'ng, ishni quritib, uni ramkaga joylashtirish kerak. Bizning rasmimiz tugadi. Somondan yasalgan rasmlar juda ta'sirli ko'rinadi - gullar, hayvonlar, ertak qahramonlari, yog'och me'morchilik inshootlari, kemalar va landshaftlar. Bu bizning master-klassimizni yakunlaydi. Umid qilamanki, siz olingan bilimlarni hayotda qo'llaysiz va o'z durdonalaringizni yaratasisiz.

Somon ilovalari Somonlarni qo'llash bo'yicha ishlarda qog'ozni qo'llashdagi kabi qoidalarga amal qilinadi. Ilova uchastka tanlashdan boshlab, ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Fon uchun sizga zich bo'lishi kerak bo'lgan material kerak bo'ladi: kontrplak, karton, baxmal qog'oz. Fon rangi har xil bo'lishi mumkin: qora, quyuq gilos, quyuq yashil, jigarrang. Bundan tashqari, mos qoplamali varaqni tanlashingiz mumkin. Oddiy yoki murakkab syujetli ilovalar, ko'p sonli detallar eskizga ko'ra amalga oshiriladi. Kelajakdagi ish uchun eskiz qalam bilan bajariladi va uning o'lchamiga mos keladi. Sketchning umumiy tarkibiga va ilovaning o'ziga alohida e'tibor berilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya dasturning muvaffaqiyati kalitidir. Eskizda somonlar yopishtiriladigan chiziqlar chizilgan. Kompozitsiya yordamida figuralar va ob'ektlarning kosmosdagi o'rni aniqlanadi (uning uchun istiqbol ishlatiladi), tasvirlangan hodisalarning izchilligiga erishiladi (bu maqsadda masshtab va nisbatlar tizimlari, shuningdek ritm, ba'zan simmetriya). Eskizni yaratishda applikasiyaning kompozitsion markazini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ba'zi qoidalarga rioya qilishga harakat qiling: somon tasvirini doimiy ravishda yopishtirishdan saqlaning, tasvirlar atrofida ko'proq havo qoldiring, kompozitsiyani mayda detallar bilan murakkablashtirmang. Ko'pincha, ilovalar somon lentalaridan yoki "oltin plitalar" dan tayyorlanadi, ularni ikki usulda olish mumkin: issiq va sovuq. Issiq yo'l. Gazetalar to'plamini tayyorlang, ustiga

butun somonlarni qo'ying. Somonlarga issiq dazmol qo'ying. Issiq temirning somon bilan tegishidan tor, zich somon lentarlari olinadi. Bunday lentarlardan qo'llash konveks, kabartmalı. Agar dazmollashdan oldin somonlar 60-80 ° C haroratda issiq suvda ushlab turilsa va tanasi bo'ylab o'tkir pichoq yoki qaychi bilan kesilsa va keyin issiq dazmol bilan dazmollansa, somon lentarlari yanada elastik va kengroq bo'ladi. , ishda yanada moslashuvchan. Sovuq yo'l. Magistral bo'ylab somonlarni kesib oling, ularni yon tomonlarga oching va qaychi halqalari bilan dazmollang, ularga qattiq bosing. Bu usul oson; shu tarzda olingan lentalar issiq ishlov berishdan ko'ra ko'proq elastiklik va yorqinlikka ega bo'ladi. Keyin somonlar qog'ozga yopishtiriladi, shunda yoriqlar va bo'shliqlar bo'lmaydi, ular quriguncha mahkam bosiladi. Yelimlash uchun PVA elimidan foydalanish yaxshidir, lekin elim tashqariga chiqmasligi va dog 'qoldirmasligi uchun uni juda ko'p surtmasligingiz kerak. Shunday qilib, kompozitsiya uchun turli xil tafsilotlarni kesish mumkin bo'lgan "oltin plastinka" olinadi. Turli xil rangdagi bir nechta bunday plitalar bo'lsa yaxshi bo'ladi. Shuningdek, siz somon lentasidan ilovalar qilishingiz mumkin. Bunday lentalarni yopishtirishdan oldin ular rangi bo'yicha yotqiziladi: bir joyda och sariq, ikkinchisida och jigarrang, uchinchisida to'q jigarrang va hokazo. Keyin ular kerakli o'lchamdagi segmentlarga bo'linadi, rasm eskizidan kesiladi. Misol uchun, barg qilish uchun tomir bo'ylab yarmi kesiladi. Bir yarmi elim bilan surtiladi va quruq, toza qog'ozga o'tkaziladi, shundan keyingina ular somon lentalarini qo'llashni boshlaydilar. Somon lentalarining bo'laklari tasvirdan kattaroq bo'lishi kerak. Yopishganda, ular bo'shliqlardan qochib, bir-biriga yaqin yotqiziladi. Stiker yaxshi quriganida, qog'oz tasvirining chetida ortiqcha somonni kesib tashlang. Shu tarzda tayyorlangan tasvirlar fonda joylashtiriladi va ular ko'rinadi, hamma narsa kerakli yoki xohlaganchaligini tekshiradi. Agar hamma narsa benuqson bo'lsa, ular teskari tomondan elim bilan qoplanadi, fonga yopishtiriladi va yuk ostida yana quritiladi. Ilovani davom ettirishdan oldin, turli xil tafsilotlarda somonning yo'nalishini oldindan aniqlash kerak: vertikal, gorizontal yoki qiyshiq va shunga mos ravishda tafsilotlarni kesib tashlang. Qolgan narsalarni isrof qilmaslik uchun "oltin rekord"dan oqilona foydalanishga harakat qiling. Shuningdek, bezaklarni diqqat bilan ko'rib chiqishga arziydi - ulardan qiziqarli narsa paydo bo'lishi mumkin. Tugallangan dasturda mayda detallar yoki bezaklarni yoqish orqali bo'yashga ruxsat beriladi. Agar siz bunday ilovalarning chekkasini yasangiz va ularni shisha ostida belgilasangiz, ular ancha uzoq davom etadi. Somon aplikatsiyasining uch xili mavjud: mavzu (buyumning tasviri — qayiq, daraxt, kapalak va boshqalar), syujet (syujet tasviri) va dekorativ (biror narsani bezash uchun). "Somon va boshqa materiallardan to'qish" kitobidan muallif Qo'ziqorin Alesya Anatolevna Somon to'qish To'qimachilik eng qadimgi hunarmandchilik turlaridan biridir. U ibtidoiy xalqlarga to'quvchilik va kulolchilik paydo bo'lishidan ancha oldin ma'lum bo'lgan. Inson tabiiy muhitni o'zlashtirib, egiluvchan novdalar va

